








XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar oyi uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimizning iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 58,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 24,4 mln. AQSh dollariga yoki 71,8 % ga ko'paygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	33,9	58,3	171,8 %	x
Eksport 	8,1	12,8	158,4%	100,0
 tovarlar	7,1	12,4	174,6	96,9
 xizmatlar	1,0	0,4	40,0	3,1
Import 	25,9	45,5	176,0 %	100,0
 tovarlar	25,9	45,5	176,0	100,0
 Saldo	-17,8	-32,7	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 12,8 mln. AQSh dollarini (58,4 % ga ko'paygan) va import hajmi 45,5 mln. AQSh dollarini (76,0 % ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida – 32,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG
YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

TSA – 19,7
Eksport – 2,5
Import – 17,2



**Rossiya
Federatsiyasi**

TSA – 5,0
Eksport – 2,6
Import – 2,4



Qozog'iston

TSA – 1,1
Eksport – 0,6
Import – 0,5



**Koreya
Respublikasi**

TSA – 3,2
Eksport – 0,0
Import – 3,2



Turkiya

TSA – 3,2
Eksport – 2,1
Import – 1,1



**Qirg'iz
Respublikasi**

TSA – 2,5
Eksport – 2,5
Import – 0,0



Germaniya

TSA – 1,9
Eksport – 0,0
Import – 1,9



Afg'oniston

TSA – 0,1
Eksport – 0,1
Import –



**Chexiya
Respublikasi**


TSA – 0,1
Eksport – 0,0
Import – 0,1

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 40 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (8,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (33,8 %), Turkiya (5,5 %), Qirg'iz Respublikasi (4,2 %), Koreya Respublikasi (5,6 %), Qozog'iston (2,0 %), va Germaniya (3,4 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda Qirg'iziston, Tojikiston va Afg'oniston bilan viloyatni tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 11 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlat bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (0,9 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (2,5 mln. AQSh dollari) va Eron (0,4 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar, mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	4,9	7,5	19,7
Eksport	0,0	1,5	2,5
Import	4,9	6,0	17,2
Saldo	-4,9	-4,5	-14,7
Rossiya Federatsiyasi	4,7	11,0	5,0
Eksport	2,4	3,0	2,6
Import	2,3	8,0	2,4
Saldo	0,1	-5,0	-0,2
Qozog'iston	0,8	0,3	1,1
Eksport	0,2	0,1	0,6
Import	0,6	0,2	0,5
Saldo	0,4	-0,0	0,1
Koreya Respublikasi	0,7	0,8	3,3
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	0,7	0,8	3,2
Saldo	-0,7	-0,8	-3,1
Turkiya	1,7	2,5	3,2
Eksport	0,4	1,3	2,1
Import	1,3	1,2	1,1
Saldo	0,9	0,1	1,0
Qirg'iz Respublikasi	0,1	0,2	2,5
Eksport	0,1	0,2	2,5
Import	-	0,0	0,0
Saldo	-	0,2	2,5

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Germaniya	0,0	1,0	1,9
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	0,0	1,0	1,8
Saldo	0,0	-1,0	-1,7
Afg'oniston	0,2	0,0	0,1
Eksport	0,2	0,0	0,1
Import	-	0,0	-
Saldo	-	-	-
Braziliya	-	4,9	14,6
Eksport	-	-	0,0
Import	-	4,9	14,6
Saldo	-	-4,9	-
Turkmaniston	1,5	1,1	1,0
Eksport	1,2	0,9	0,4
Import	0,3	0,2	0,6
Saldo	0,9	0,7	-0,2
Hindiston	0,0	1,9	0,4
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	0,0	1,9	0,3
Saldo	0,0	-1,9	-0,2



XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 18,9 % ni tashkil etib, 2019- yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 17,5 % ga ko'paygan.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar oyida 2019- yilning shu davriga nisbatan 17,5 % ga ko'paygan va jami TSA dagi ulushi 81,1 % ni tashkil etdi.


XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlari soni 26 tani tashkil etib, ular tomonidan 12,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 58,4 % ga ko'paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,0 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (56,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (27,3 %), turli xil tayyor buyumlar (8,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)



- | | |
|---|--|
|  Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 27,3 % |  Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 0,2 % |
|  Ichimliklar va tamaki – 0,0 % |  Sanoat tovarlari – 56,3 % |
|  Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 4,5 % |  Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,5 % |
|  Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,0 % |  Turli xil tayyor buyumlar – 8,2 % |
|  Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar – 0,0 % |  Xizmatlar – 3,0 % |



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	12,8	158,4	100,0	7,0	159,9	100,0	5,8	156,6	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,4	5,1 m.	27,3	2,7	6,0 m.	38,4	0,7	3,0 m.	14,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, Yoqilg'idan tashqari	0,6	61,9	4,5	0,1	95,0	1,8	0,5	56,3	7,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	195,4	0,2	0,0	195,4	0,3	-	-	-
Sanoat tovarlari	7,2	136,8	56,3	2,9	110,4	41,3	4,3	162,3	74,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1		0,5	0,1	-	0,9	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	1,1	5,8 m.	8,2	1,0	5,5 m.	14,3	0,1	-	1,1
Xizmatlar	0,4	36,9	3,0	0,2	20,5	3,0	0,2	12,8 m.	3,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlarga to‘g‘ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yilning yanvariga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar, kimyoviy vositalar, mashinalar va transport asbob-uskunalari hamda xizmatlar guruhlarida pasayish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,0	8,2	27,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8,4	11,5	4,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar	2,4	0,0	-
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	0,0	0,1	0,2
Sanoat tovarlari	51,0	65,2	56,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1	0,0	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	2,2	8,2
Xizmatlar	23,8	12,8	3,0



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar)**


XSST bo`limi nomi	Min. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	3,2	5,4 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,2	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	-	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,3	42,0
Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	63,0
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Yumshoq o`simlik moylarini ishlab chiqarishga yaroqli moyli va moyli urug`lar	0,2	51,5 m.
O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko`mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	-	-
Mineral yoqilg`i, yog`lash moyi va shunga o`xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun`iy gaz	-	-
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	-	-
Hayvon va o`simliklar moyi (yog`lari), yog`lar va mumlar		
O`simlik moyi va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	-	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	-	-

O'g'itlar	-	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	-	-
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6,9	130,3
Rangli metallar	-	-
Qog'oz massasi	0,2	175,0 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	0,1	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,6	38,9 m.
Poyabzal	0,4	2,4 m.
Har xil tayyor buyumlar	0,1	729,0 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	-	-
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	0,2	83,3
Safarlar (turizm)	0,1	12,0
Boshqa biznes xizmatlari	0,1	87,6
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

Soʻnggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi koʻpaygan va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvaridagi 67,2 % dan 2021- yilning yanvarida 54,3 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 45,7 % ni tashkil etdi.




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**
(yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



2021- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 20,1 %), Qirgʻiz Respublikasi (19,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (19,3%), Turkiya (16,1 %), Qozogʻiston (5,1 %), Tojikiston (3,0 %) va Afgʻoniston (0,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 83,7 foizni tashkil etmoqda.



**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar, % da)**



2021- yilning yanvar oyida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeyini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg'iz Respublikasi, XXR o'rin egallagan. Turkiyadan ortda qolgan Qozog'iston uchinchi pog'onadan to'rtinchi o'ringa tushdi.

Joriy yilning yanvar oyida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 44 davlatdan 18 davlatga kamaydi.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Qirg'iz Respublikasi	0,2	2,5	2,0 m.	12,5 m.	5	2
Rossiya Federatsiyasi	3,0	2,6	125,0	86,7	1	1

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Qozog'iston	0,1	0,6	50,0	6,0 m.	6	4
Turkiya	1,3	2,1	3,3 m.	161,5	3	3
Xitoy Xalq Respublikasi	1,5	2,5	-	166,7	2	2
Turkmaniston	0,9	0,4	75,0	44,4	4	5

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT
TARKIBI**


XSST tarkibi	XXR		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	1,4	2,4	3,9	2,5	1,3	2,0	0,1	0,6
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,2	0,2	0,0	0,1	0,1	0,6
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	-	0,3	-	-	0,7	-	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,9	0,0	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-

XSST tarkibi	XXR		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Sanoat tovarlari	1,4	2,1	2,4	2,2	0,6	1,9	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	0,4	0,1	-	-	-	-

Xizmatlar eksporti hajmi 0,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,0 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 36,9 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (65,1 %), safarlar (turizm) (21,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (13,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar, ulushi % da)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 3,2 mln. dollar qiymatli yoki 4,4 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,6 mln. AQSh dollarida kuzatilib, 5,4 martaga ko'paygan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 1,9 mln. AQSh dollariga teng 3,2 ming tonna sabzavot, shuningdek, 0,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 0,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 25,0 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar, mln. AQSh dollari)



Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va

yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (4,7 %), Rossiya Federatsiyasi (1,6 %), Qirg'iz Respublikasi (8,6 %) va Turkiya (0,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	0,5	0,1	1,2	2,1	0,6	4,7
Rossiya Federatsiyasi	0,3	0,2	2,4	0,2	0,2	1,6
Qirg'iz Respublikasi	-	-	-	0,6	1,1	8,6
Turkiya	-	-	-	0,1	0,1	0,8
Boshqa mamlakatlar	0,8	0,3	-	3,0	1,2	-

*- qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 7,7 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 60,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148,1 % ko'paygan.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (81,8 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (9,1 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 7 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 14 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar, mln. AQSh dollari)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Paxtadan yigirilgan ip	2,8	4,6	6,3
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	0,0	0,1	0,7
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	0,7	0,6	0,7



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar, mln. AQSh dollari)



Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida, viloyatning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi

(27,3 mln. AQSh dollari – 34,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (18,8 mln. AQSh dollari – 23,7 %) va Turkiya (12,2 mln. AQSh dollari – 15,4 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINI EKSPORTI DAVLATLAR
DINAMIKASI**
(yanvar, mln. AQSh dollari)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	1,5	2,4	2,1
XXR	-	1,4	2,4
Turkiya	0,4	0,6	1,9
Qirg‘iziston Respublikasi	-	-	0,6
Ukraina	0,1	0,1	0,2
Eron	1,1	0,6	0,3


XORAZM VILOYATINING IMPORTI
(2021- yil yanvar)

2021- yilning yanvar oyida import hajmi 45,5 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 76,0 % ga ko‘paygan.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (35,5 %) hamda sanoat tovarlari (2,8 %), kimyoviy vositalar (5,2 %) va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (12,6 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



**XSST BO`LIMI BO`YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar, ulushi, % da)**



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 35,5 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari –3,7 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar –1,1%
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,0 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 5,2 %
- Sanoat tovarlari – 2,8 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari – 39,1 %
- Turli xil tayyor buyumlar –12,6%

Tovar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2021- yilning yanvarida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 19,6 mln. AQSh dollariga kamaydi va 45,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mIn. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mIn. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mIn. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	45,5	176,0	100,0	4,1	46,0	100,0	41,4	2,4 m.	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,1	148,6	35,5	0,9	15,6	22,0	15,2	2,9 m.	36,9
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,7	80,4	3,7	1,5	94,5	37,0	0,2	36,7	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,5	4,7 m.	1,1	0,4	3,6 m.	9,0	0,1	-	0,3
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,4	2,6 m.	5,2	0,3	147,9	7,0	2,1	2,9 m.	5,1
Sanoat tovarlari	1,3	124,2	2,8	0,4	62,6	11,0	0,9	2,5 m.	2,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	17,8	193,0	39,1	0,4	112,2	8,0	17,4	195,7	42,0
Turli xil tayyor buyumlar	5,7	4,1 m.	12,6	0,2	172,5	6,0	5,5	4,4 m.	13,1

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019 - yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi 4,2 % dan 35,5 % ga o'sdi, sanoat tovarlari importining ulushi 5,3 % dan 2,8 % gacha , mashinalar va transport asbob-uskunalari 43,8 % dan 39,1 % ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,2	42,0	35,5
Ichimliklar va tamaki	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,8	8,2	3,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,4	1,1
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,8	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,5	3,5	5,2
Sanoat tovarlari	5,3	4,0	2,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	43,8	35,6	39,1
Turli xil tayyor buyumlar	32,0	5,5	12,6



**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	2,3 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	14,6	143,1
Sabzavotlar va mevalar	0,3	166,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,3	4,6 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,3	147,6
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	1,5	85,3
Metall rudalari va metall parchalari To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,1	42,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,1	-
Moy olinadigan urug'lar va mevalar		
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,4	4,3 m.
Ko'mir, koks va briketlar	0,1	16,3 m.
Elektr toki	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moyi va yog'lari	-	-
Hayvon va o'simlik moyi va yog'lari	-	-

Hayvonlar moyi va yog'ları	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,3	2,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,7	2,1 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,0	2,4 m.
Efir moyi, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,1	41,3 m.
Organik kimyo moddalari	0,3	3,6 m.
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	0,3	91,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	0,1	125,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	0,1	24,5
Probka va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	-	-
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	674,3 m.
Qog'oz	0,6	35,2 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	10,4	133,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1,9	176,3
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	5,0	30,2 m.
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	0,1	27,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,4	25,8 m.



Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,5	23,1 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5,2	3,7 m.
Har xil tayyor buyumlar	-	-
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	-	-
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	-	-

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlari shakar va shakardan tayyorlangan mahsulotlar hamda asal hisobiga (43,1%) oshgan .

Sanoat tovarlari importi o'sishiga esa, metallardan tayyorlangan buyumlar (25,8 %) va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (24,1 %) importining oshganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(*vanvar. mln. AQSh dollari. ulushi % da*)



2020- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori o'tililka o'zgarish kuzatilmadi.

2021- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha Xorazm viloyati tomonidan 30 davlat bilan tovarlar importi amalga oshirildi.




**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	8,0	2,4	3,5 m.	30,0	1	3
Xitoy Xalq Respublikasi	6,0	17,2	122,0	2,9 m.	2	1
Koreya Respublikasi	0,8	3,2	114,3	4,0 m.	5	2
Turkiya	1,2	1,1	92,3	91,7	3	5
Turkmaniston	0,2	0,6	66,7	3,0 m.	6	6
Qozog'iston	0,2	0,5	33,3	2,5 m.	6	7
Germaniya	1,0	1,8	-	180,0	4	4



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar)**



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi jami importning 91,2 % ini yoki 41,5 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09**